



Ўзбекистон Республикаси
Қурилиш ва
уй-жой коммунал
хўжалиги вазирлиги.

№ 9432-2164-7a22-9eb9-4964-5147-4604
Хужжат яратилинган сана: 2023-06-02
Ариза рақами: 80668610

Хужжат берилган: "PRO UNITI GROUP" MAS`ULIYATI
SHEKLANGAN JAMIYAT
СТИР: 309159657

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ҚУРИЛИШ ВАЗИРЛИГИ

Тошкент шаҳар қурилиш бош бошқармаси

Лойиҳа-смета ҳужжатларини келишиш бўйича Архитектура ва шаҳарсозлик кенгаши ишчи
органининг

02.06.2023 даги 73118 -сонли

ХУЛОСАСИ

т/р	Тақдим этиладиган маълумотлар	
1.	Ариза рақами:	80668610
2.	Мурожаат этувчи Лойиҳа ташкилотининг номи:	"PRO UNITI GROUP" МЧЖ
3.	Лойиҳа-смета ҳужжатларининг буюртмачиси номи:	"AGROBUSINESS SP MANAGEMENT" МЧЖ
4.	Объект манзили:	Чилонзор тумани, Тирсақобод кўчаси манзилида.
5.	Лойиҳа-смета ҳужжатларининг номланиши:	Университет, мактаб, боғча, клиника, кўп ва ўрта қаватли турар - жойлар, коттедж, меҳмонхона ҳамда савдо ва маиший хизмат кўрсатиш мажмуаларига қайта ихтисослаштириб, реконструкция қилиш.
6.	Архитектура-режалаштириш топшириғининг рекузитлари:	16.08.2022 йилдан 1726-1726294-48447-сон

Лойиҳани кўриб чиқиш натижаси

т/р	Категория	Нагижа	Изох
1.	Сўровноманинг тўғри тўлдирилганлиги:	Ижобий	
2.	Объект бош режасининг ечими тўғри топилганлиги:	Ижобий	
3.	Объектнинг меъморий ечими тўғри топилганлиги:	Ижобий	
4.	Лойиҳада автотураргоҳ масаласи ҳал этилганлиги:	Ижобий	
5.	Қурилиш чизигига амал қилинганлиги:	Ижобий	

6.	Ситуацион планда аниқ кўрсатилганлиги:	Ижобий	
7.	Ёнғин ҳавфсизлиги ва санитария талабларига амал қилинганлиги:	Ижобий	
8.	Лойиҳада имконияти чекланган шахсларинг манфаатлари ҳисобга олинганлиги:	Ижобий	
9.	Лойиҳада энергиясамарадорлик талабларига амал қилинганлиги:	Ижобий	
10.	Лойиҳа ташкилоти лицензия орқали рухсат берилган соҳа доирасидан ташқари объектнинг лойиҳаси ишлаб чиқилганлиги:	Ижобий	
11.	АРТ талабларидан четга чиқиш:	Ижобий	

Алоқадор ташкилотларнинг хулосалари:

Ҳудудий ёнғинга қарши назорат хизмати: Келишилган;

Кўшимча маълумотлар: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 20 apreldagi “Arxitektura va qurilish sohasidagi davlat xizmatlari ko‘rsatishning ayrim ma‘muriy reglamentlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 200-son qarorining 4-ilovasi “Loyiha-smeta hujjatlarini kelishish bo‘yicha davlat xizmatlari ko‘rsatishning ma‘muriy reglamenti”ga asosan loyiha-smeta hujjatlarini kelishish bo‘yicha, Chilonzor tuman Favqulodda vaziyatlar bo‘limining № 23/33-605-sonli X U L O S A 2023-yil 27-may Toshkent sh. Toshkent shahar Chilonzor tumani Favqulodda vaziyatlar bo‘limi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 20 apreldagi “Arxitektura va qurilish sohasidagi davlat xizmatlari ko‘rsatishning ayrim ma‘muriy reglamentlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 200-son qarorining 4-ilovasi “Loyiha-smeta hujjatlarini kelishish bo‘yicha davlat xizmatlari ko‘rsatishning ma‘muriy reglamenti”ga asosan, “my.gov.uz” YaIDXPdan 2023-yil 23-may kuni №80668610-unikal raqamli murojaat kelib tushgan bo‘lib, unda, (2022 yil 03 oktyabr kuni №61478095-unikal raqamli murojaat 2022 yil 04 oktyabr kuni 23/33-1277-sonli xulosa bilan kelishilgan) buyurtmachi “Agrobusiness SP Management” MChJ tomonidan Chilonzor tumani Tirsakobod ko‘chasi manzilida joylashgan harbiy shaharchasini yuridik hujjatga ega qismida universitet, maktab, bog‘cha, klinika, ko‘p va o‘rta qavatli turar-joylar, kottedj, mehmonxona hamda savdo va maishiy xizmat ko‘rsatish majmualariga qayta ixtisoslashtirib, rekonstruksiya qilish bo‘yicha “Pro Uniti Group” MChJ tomonidan ishlab chiqilgan dastlabki “eskiz” loyihagini o‘rganib chiqib xulosa berish yuzasidan berilgan murojaat ko‘rib chiqildi. Eskiz loyihani ko‘rib chiqish natijasi bo‘yicha amaldagi shaharsozlik norma va qoidalariga muvofiq quyidagi yong‘inga qarshi talablarni ishchi loyihasiiga kiritish sharti bilan e‘tiroz bildirmaydi; loyihalananayotgan turar-joy binosidan uning yaqinidagi binolargacha bo‘lgan oraliq masofani ShNQ 2.07.01-03* “Shaharsozlik. Shahar va qishloq aholi punktlari hududlarini qurish va rivojlantirishni rejalashtirish” shaharsozlik norma va qoidalari 1-ilovasining (majburiy) 1*-jadvali hamda ShNK-2.01.02-04-Bino inshootlarning yong‘in xavfsizligi 1-sonli o‘zgartirish 3.13-bandiga asosan qabul qilinishi va bunda qurilayotgan binoni 9 ballik seysmik xavfli hududda joylashganligini inobatga olinishi QMQ 2.01.03-96 “Zilzilaviy hududlarda qurilish” ShNK-2.01.02-04-Bino inshootlarning yong‘in xavfsizligi 1-sonli o‘zgartirish 3.9 va 3.10-bandlari ShNQ 2.07.01-03* “Shaharsozlik” me‘yoriy hujjatning 1*-majburiy ilovasi 15*-bandiga asosan binolar atrofida yong‘in o‘chirish avtomobillarini harakatlanishi uchun qattiq qoplamali aylanma yo‘lni ko‘zda tutilishi hamda turar joy binosining istalgan xonadoni yoki xonasiga yong‘in o‘chirish avtonarvon (avtoko‘targich)lari orqali yong‘in o‘chiruvchilarni kirishi uchun imkoniyat yaratilsin; qurilishi rejalashtirilgan balandligi 100 metrgacha bo‘lgan turar-joy majmua binolar hududida ShNK 2.01.02-04 “Bino inshootlarning yong‘in xavfsizligi” 1-sonli o‘zgartirish shaharsozlik norma va qoida talablarining 3.8-bandiga asosan yong‘in qutqaruv qismi qurilishi va yong‘in qutqaruv texnikalari va boshka vositalar bilan ta‘minlanishi bo‘yicha Toshkent shahar Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi bilan kelishilsin;

binoning tashqi devorlarining yuza qismini (fasad) pardoqlash uchun yonish guruhi G1-G4 bo'lgan qurilish materiallaridan foydalanilmaslik (asos ShNQ 2.01.02-04 "Yong'inni tarqalishini oldini olish bo'yicha metodik tavsiyalar" ilova. 7.1-bandi.); binoning atrofida tashkil etilishi rejalashtirilayotgan avtomobillar to'xtash joyini ShNQ 2.07.01-03* "Shaharsozlik" me'yoriy hujjatning 44-sonli jadval talablari asosida joylashtirilishini (asos: ShNQ 2.07.01-03* "Shaharsozlik", 185*-bandi); bino ichidagi evakuatsiya yo'llari (yo'laklarning devorlari va shifti, zinapoyalar)da qo'llaniladigan pardoqlash materiallari yonish guruhi ShNK 2.01.02-04 "Bino inshootlarning yong'in xavfsizligi" 5.25-bandiga muvofiq bo'lishi; binoda evakuatsiya yoritish tizimi ko'zda tutilsin (ShNQ 2.08.01-05 Turar joy binolari 9.54-bandi); turar joy binosi tom qismi perimetri bo'ylab balandligi 0,6 m to'siqlar o'rnatilsin (ShNK 2.01.02-04 "Yong'in tarqalishini oldini olish metodik tavsiyalar" 10.1-bandi); turar joy binosi qavatlaridan evakuatsiya yo'llarining soni va zinapoya kataklarining turi ShNQ 2.02.02-04 ShNK 2.01.02-04 "Bino inshootlarning yong'in xavfsizligi" 5.8 5.13 va 5.15-bandlariga asosida qabul qilinsin; binoning balandligi 28 metr va undan balandni tashkil etganligini inobatga olib, N1 va N2 (tutun bilan qoplanmaydigan) turdagi zinapoyalar tashkil etilishi (asos: 5.29-band, ShNK 2.08.01-05); balandligi 50 metrgacha bo'lgan ko'p qavatli gazlashtirilgan turar-joy binosining oshxona va kvartiraning ichki yo'laklari (koridor) yong'indan manzilli xabar berish uskunalari bilan jixozlanishini (asos. QMQ 2.08.01-19 "Turar joy binolari"ga 1-son o'zgartirishning 6-bandi.) balandligi 50 metrgacha bo'lgan ko'p qavatli turar-joy binosi gazsimon yonilg'ida ishlaydigan uskunalar bilan jixozlanishi ko'zda tutilgan xonalarda gaz bilan ta'minlovchi quvurlarda SO, SO₂ va SN₄ konsentratsiyasi gazanalizatorli gazni o'chiruvchi klapanlar bilan ta'minlanishini. (asos. QMQ 2.08.01-19 "Turar joy binolari"ga 1-son o'zgartirishning 9-bandi.) bino va pastki qavatlardagi maishiy xizmat ko'rsatish majmualarida va yerto'la qismida joylashgan avturargohda yong'in haqida avtomatik ravishda xabar berish qurilmasi va yong'inni avtomatik ravishda o'chirish hamda fuqarolarni yong'indan ovozli xabarlash tizimlarini o'rnatilishini (asos ShNQ 2.08.02-09* "Jamoat binolari va inshootlari" 21*-ilova (majburiy); binolar va hududlarda yong'inlarni o'chirish uchun QMQ 2.04.02-19 "Suv ta'minoti. Tashqi tarmoqlar va inshootlar" shaharsozlik norma va qoida talablarining 8.16, 8.41 va 9.28-bandlariga asosan tashqi suv tarmog'ini loyihalashtirib hisob-kitoblar asosida yong'in o'chirishga talab etiladigan suv sarfini ta'minlaydigan yong'in o'chirish gidrantlari o'rnatilishi; O'z.Res Shaharsozlik kodeksining 60-moddasi asosan ob'ektning loyiha-smeta hujjatlari shaharsozlik hujjatlari, shaharsozlik normalari va qoidalariga muvofiq ishlab chiqilib Toshkent shahar Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi bilan kelishish hamda ShNK 1.03.01-16 me'yoriy hujjatining 5.9-bandiga asosan yong'in xavfsizligi bo'yicha majburiy ekspertizadan o'tkazilishi tavsiya etiladi. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan yong'inga qarshi talablardan biri bajarilmagan taqdirda xulosa o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblanadi. Chilonzor tumani FVB;

Худудий санитария-эпидемиология хизмати: Келишилган;

Қўшимча маълумотлар: Санитария-эпидемиология Осоишталик ва жамоат саломатлиги хизматининг Тошкент шаҳар Чилонзор туман булими томонидан Сизнинг 23.05.2023 йилдаги 80668610-сонли мурожаат хатингизга асосан Чилонзор тумани Тирсақобод кўчаси манзилида жойлашган "Agrobusiness SP Management" МЧЖ томонидан ҳарбий шаҳарчасини юридик ҳужжатга эга қисмида университет, мактаб, боғча, клиника, кўп ва ўрта қаватли турар-жойлар, коттедж, меҳмонхона ҳамда савдо ва маиший хизмат кўрсатиш мажмуаларига қайта ихтисослаштириб, реконструкция қилиш бўйича "Perfect Consult" МЧЖ томонидан ишлаб чиқилган дастлабки "эскиз" лойихасига хулоса бериш юзасидан келиб тушган мурожаат, хизмат ваколоти дорасида кўриб чиқилди.. "Ўзбекистон Респуликаси ахоли яшаш жойларини атмосфера хавосини химоя қилиш тўғрисида"ги Сан КваМ 0350-17 ва ШНК 2.07.01-03 талаблари бўйича ўрганиш ишлари олиб борилди. Сан КваМ 0350-17 ва ШНК 2.07.01-03 талабларига кўра санитария минтақа химоя зонасини ва амалдаги СанКваМ ва ШНКлар талабларига амал қилган холда, Чилонзор тумани Тирсақобод кўчаси манзилида жойлашган "Agrobusiness SP Management" МЧЖ томонидан ҳарбий шаҳарчасини юридик ҳужжатга эга қисмида университет, мактаб, боғча, клиника, кўп ва ўрта қаватли турар-жойлар, коттедж, меҳмонхона ҳамда савдо ва маиший хизмат кўрсатиш мажмуаларига қайта ихтисослаштириб, реконструкция қилиш бўйичалоихалаштиришга эътироз билдирмайди.;

Бош архитектор: Ш.Дусмухамедов;

ЭСКИЗНЫЙ ПРОЕКТ ПРЕДЛОЖЕНИЕ ЗДАНИЕ ИНСТИТУТА, МНОГОЭТАЖНЫХ ЖИЛЫХ КОМПЛЕКСОВ И КОММЕРЧЕСКИХ ЗДАНИЙ ПО АДРЕСУ: УЛИЦА ТИРСАКОБОД, ЧИЛАНЗАРСКИЙ РАЙОН, Г. ТАШКЕНТ



1. Хулоса берувчиларнинг хулосада кўрсатишган талабларни бажариш, ўз худудидан чиқмаслик, дарахтларни тўлиқ сақлаб қолиш, худудда давлат боғчаси ва мактабнинг жойлаштиришни инобатга олган ҳолда худудга нисбатан турар жой бинолари зичлигини камайтириш шarti билан лойиха ишларини давом эттириш.
 2. Худуддан ўтган муҳандислик тармоғини химоя минтақасини сақлаш еки тегишли ташкилотларни белгилаш ва тартибда рухсатини олиш ҳолда ўз ҳисобидан кўчириш шarti белгилансин.
 3. Лойихалаш жараёнида АРТ ва руҳсатномада кўрсатишган талабларни тўлиқ бажариш ва қўшимча автотурақ ташкил этиш, ШНҚ 2.05.01-19 ва ШНҚ 2.07.01-03-нинг 30 банди 5 қисмида талабларни амал қилган ҳолда ишнинг қисми эрининг геологик таътирини таъбир ўрганиб чиқилган ҳолда талабларни тўлиқ бажариш шarti белгилансин.
 4. Муҳандислик тармоқларига эътиборини юзасдан ижобий таътири шarti билан белгилансин.
 5. Юқоридаги талаблар бажаришмасдан таътирда ушбу хулоса бекор қилиниши белгилансин.
- Қуриш режалаштирилган бинода углеводородлар ва электр энергиясини асбобдорлини камайтириш мақсадида, энергия тежамкор қуриш материалларидан фойдаланиш, иссиқ сув таъминоти, еритиш ва бивалент иситиш тизими учун фотоэлектрик тизимлар, геотермоколлекторлар ва иссиқлик насосларини ўрнатиш, муҳандислик тармоқларини ҳам инобатга олиш, тавсия этилади.
- Ушбу хулоса қуриш ишларини олиб борилишига асос бўлмаслигини ва хулоса талаблари тўлиқ бажарилмаган таътирда берилган хулоса ўз қучини йўқотилади.
- Объектга тегишли худуддан ташқари лойихаланган бино ва иншоотларга нисбатан келиб чиқадиغان оқибатларга лойихачи ташкилоти жавобгар ва маъсул.

DUSMUXAMEDOV SHOVKAT KAMILDJANOVICH

Мазкур ҳужжат Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 15 сентябрдаги 728-сон қарорига мувофиқ Ягона интерактив давлат хизматлари порталида шакллантирилган электрон ҳужжатнинг нусхаси бўлиб, давлат органлари томонидан ушбу ҳужжатни қабул қилишни рад этишлари қатъиян тақиқланади. Ҳужжат ҳақиқийлигини gero.gov.uz веб-сайтида ҳужжатнинг ноёб рақамини киритиб ёки мобил телефон ёрдамида QR- кодни сканер қилиш орқали текшириш мумкин.

3257

